BG Pulse Journal USA
ISSN:1947-2536 http://www.bgpulseusa.com/index.php/bg

O‘RTA ASRLARDA KARMANANING SIYOSIY MAYDONDAGI O‘RNI

Rashidov Sunnatillo Rashid o‘g‘li
Samarqand davlat universiteti doktoranti
sunnatillorashidov050@gmail.com
Ziyayev Husan Niyoz o‘g‘li
Samarqand davlat universiteti doktoranti
ziyayevhusan@gmail.com
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.22988992

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada Zarafshon vodiysining qadimiy shaharlaridan biri bo‘lgan Karmananing o‘rta asrlar davomida - Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, mo‘g‘ullar istilosi va Chig‘atoy ulusi, Temuriylar, Shayboniylar, Ashtarxoniylar hamda Mang‘itlar sulolalari hukmronligi davrida - Movarounnahrning siyosiy hayotidagi o‘rni tadqiq etiladi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy va manbashunoslik tahlili usullaridan foydalanilgan holda, Karmananing nafaqat iqtisodiy va ma’muriy markaz, balki ayrim davrlarda mustaqil siyosiy kuchlar markazi, Buxoro xonligining norasmiy poytaxti va diniy-ma’naviy nufuz markazi sifatidagi roli yoritiladi. Maqola Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asari va boshqa tarixiy-ilmiy manbalarga tayangan holda yozilgan.
Kalit so‘zlar: Karmana, Zarafshon vodiysi, Buxoro, Movarounnahr, Shayboniylar, Ashtarxoniylar, Mang‘itlar, Rabati Malik, siyosiy tarix, o‘rta asrlar.

ABSTRACT: This article examines the role of Karmana, one of the ancient cities of the Zarafshan Valley, in the political life of Transoxiana throughout the medieval period, including the periods of rule of the Samanids, Karakhanids, Seljuks, the Mongol invasion and the Chagatai Khanate, the Timurids, Shaybanids, Ashtarkhanids, and Manghits. Using historical-comparative and source-critical methods of analysis, the study highlights Karmana’s role not only as an economic and administrative center but also, during certain periods, as a center of independent political forces, an unofficial capital of the Bukhara Khanate, and an important center of religious and spiritual influence. The article is based on Narshakhi’s The History of Bukhara and other historical and scholarly sources.
Keywords: Karmana, Zarafshan Valley, Bukhara, Transoxiana, Shaybanids, Ashtarkhanids, Manghits, Rabati Malik, political history, Middle Ages.

KIRISH

O‘rta asrlar davri Markaziy Osiyo xalqlari tarixida davlatchilik an‘analarining shakllanishi, mustahkamlanishi va rivojlanishi nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega bosqich hisoblanadi. Milodning IV asridan XIX asr o‘rtalarigacha bo‘lgan ushbu uzoq davr mobaynida hududimizda Eftaliylar, Turk xoqonligi, Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, Chig‘atoy ulusi, Temuriylar, Shayboniylar, Ashtarxoniylar va Mang‘itlar sulolalari kabi bir qator yirik davlat uyushmalari tashkil topib, o‘zaro almashinib turgan[1]. Ushbu davlatlarning siyosiy tarixini o‘rganishda nafaqat poytaxt shaharlar - Buxoro, Samarqand, Marv, Urganch kabi markazlar - balki ularga tobe bo‘lgan, ammo o‘ziga xos siyosiy vazn kasb etgan ikkinchi darajali shaharlarning roli ham muhim tadqiqot predmeti bo‘lib qoladi.

[1] Sultonov Farhod va Farrux Bozorboyev. O‘rta asrlar tarixi (O‘zbekiston tarixi). Darslik, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007. 12-bet.

Zarafshon daryosining o‘rta oqimida, Buxoro bilan Samarqand oralig‘ida, Buyuk ipak yo‘lining muhim tugunlaridan birida joylashgan Karmana shahri aynan shunday shaharlardan biridir. Karmana shimol tomondan Nurotaning Qoratog‘ tizmalari, shimoli-g‘arbda Qizilqum, janubda esa Ziyovuddin-Zirabuloq tog‘ tizmalari, sharqda hosildor yerlar bilan o‘ralgan, geografik jihatdan juda qulay joylashgan[2]. Hozirgi Navoiy viloyati hududida joylashgan bu qadimiy maskan haqidagi dastlabki yozma ma’lumotlarni X asrda yashagan mashhur tarixchi Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida uchratish mumkin. Ushbu asarda Karmana Buxoro qishloqlaridan biri sifatida tilga olinib, uning suv ta’minoti Buxoro suv tizimiga bog‘liqligi, hiroji (yer solig‘i) Buxoro hirojiga qo‘shilishi qayd etilgan. Shu bilan birga, Karmanada alohida jome masjidi mavjudligi, u yerda adib va shoirlarning ko‘pligi ham ta’kidlangan[3].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Karmananing tarixiy taqdiri - kichik bir qishloqdan Buxoro xonligining amalda ikkinchi (norasmiy) poytaxtiga aylanishi jarayoni - o‘rta asr Movarounnahr davlatlarida markaz va viloyat o‘rtasidagi siyosiy-hududiy munosabatlarning, shuningdek diniy-ma’naviy nufuzning siyosiy hokimiyatga ta’siri masalasining yorqin namunasi bo‘la oladi. Bu jarayonni chuqur o‘rganish o‘rta asr O‘zbekiston davlatchiligi tarixidagi mintaqaviy siyosiy tuzilmalarning shakllanish qonuniyatlarini yanada to‘liqroq tushunishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi - Karmananing IX–XVIII asrlar oralig‘idagi siyosiy maqomi evolyutsiyasini, uning turli sulolalar davridagi ma’muriy-siyosiy o‘rnini, mustaqil hukmdorlik markazi sifatidagi faoliyatini hamda diniy-siyosiy nufuz markazi sifatidagi rolini yoritishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot tarix fanida qo‘llaniladigan bir qator uslublarning uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanilishi asosida olib borildi.

Manbashunoslik tahlili usuli. Tadqiqotning asosiy manbaviy bazasini X asr tarixchisi Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asari, shuningdek Movarounnahr tarixiga bag‘ishlangan keyingi davr vaqf hujjatlari va tarixiy-me‘moriy yodgorliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlar tashkil etadi. Bu asarlar Karmananing X asrdagi ma’muriy-huquqiy maqomi, uning Buxoro bilan iqtisodiy-huquqiy aloqalari haqida bevosita guvohlik beradi.

Tarixiy-qiyosiy usul. Karmananing turli sulolalar - Somoniylar, Qoraxoniylar, Shayboniylar, Ashtarxoniylar, Mang‘itlar - davridagi siyosiy maqomini bir-biri bilan qiyoslash orqali uning mavqeidagi evolyutsion o‘zgarishlarni kuzatish imkoni yaratildi.

Tarixiy-xronologik usul. Voqealar taqdimoti IX–XVIII asrlar davomidagi xronologik izchillikda berilib, bu davrlar orasidagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Tizimli-tuzilmaviy tahlil. Karmananing siyosiy o‘rni alohida olingan voqea sifatida emas, balki Movarounnahrning umumiy siyosiy tizimi - markaziy hokimiyat, mahalliy beklar, harbiy-siyosiy kuchlar va diniy-tasavvufiy qarashlar o‘rtasidagi munosabatlar tizimi - tarkibida ko‘rib chiqildi. Tadqiqot davomida zamonaviy o‘zbek tarixshunosligida chop etilgan ilmiy maqolalar, ensiklopedik nashrlar hamda mahalliy o‘lkashunoslik tadqiqotlaridan ham foydalanildi, bu esa mavzuni yanada kengroq manbaviy asosda yoritish imkonini berdi.

NATIJALAR

Karmananing ilk o‘rta asrlardagi maqomi: Somoniylar davri. Karmana toponimining kelib chiqishi qadimiyga borib taqaladi. Tarixchi-arxeolog M.M. Ishoqovning fikricha, “Karmana” (“Karmina”) nomining tarkibiy qismlari qadimiy toponimik qatlamlarga mansub. Xalq rivoyatlariga ko‘ra, qadim zamonlarda Karmanani “Bo‘dyayi xurdak” (“Kichkina ko‘zacha”) deb ham atashgan.

[2] Xotamov A., Bekniyozov N., Karmana qadimiy diyor. Toshkent, 2007. 5-bet.
[3] Abu Bakr Narshaxiy. Buxoro tarixi. Fors tilidan A. Rasulev tarjimasi. 9-bet.

IX–X asrlarda, Somoniylar davlati hukmronligi davrida Movarounnahrning markaziy qismi - Buxoro va uning atrofidagi qishloq va shaharchalar - nisbatan barqaror ma'muriy-huquqiy tizimga ega bo'lgan. Narshaxiyning yozishicha, Karmana o'sha davrda Buxoroning qaram qishlog'i maqomida bo'lib, uning suv ta'minoti Buxoro suv tizimidan, ya'ni umumiy irrigatsiya tarmog'idan ta'minlangan, hiroj (yer solig'i) esa Buxoro hirojiga qo'shib yig'ilgan. Bu - Karmananing o'sha bosqichda mustaqil siyosiy-ma'muriy birlik emas, balki Buxoroning iqtisodiy-siyosiy tizimiga bevosita bog'liq hudud bo'lganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, manbada Karmanada alohida jome masjidi barpo etilgani, bu yerda ilm-fan va adabiyot ahli - adib va shoirlarning ko'pligi qayd etilishi uning madaniy-diniy jihatdan allaqachon ancha rivojlangan markaz bo'lganini ko'rsatadi[4]. Bu holat - hududning kelajakda diniy-ma'naviy markazga aylanishi uchun poydevor sifatida qaralishi mumkin.

Karmananing geografik joylashuvi - Buxoro va Samarqand o'rtasidagi savdo yo'li ustida, Zarafshon daryosi bo'yida joylashganligi - uning istiqbolli rivojlanishini belgilab bergan asosiy omillardan biri edi. Buyuk ipak yo'lining Movarounnahr qismidagi bu strategik nuqta orqali Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo karvonlari muntazam qatnab turgan, bu esa hududda aholi zich joylashuvi va shahar infratuzilmasining shakllanishiga sabab bo'lgan.

Qoraxoniylar va Saljuqiylar davri: Rabati Malik va harbiy-siyosiy voqealar. X asr oxiri - XI asr boshlarida Somoniylar davlati inqirozga yuz tutib, uning o'rnini Qoraxoniylar davlati egalladi. 999-yilda Buxoroning Qoraxoniy sarkardasi Nasr Iloqxon boshchiligidagi qo'shinlar tomonidan zabt etilishi bilan Somoniylar hukmronligi butunlay barham topdi. Shu davrdan boshlab Movarounnahrning markaziy qismi, jumladan Karmana ham, Qoraxoniylar davlati tarkibiga o'tdi.

Qoraxoniylar davrida Buxoro va Samarqand oralig'idagi hudud yanada faol iqtisodiy-siyosiy jarayonlar maydoniga aylandi. Bu davrda qurilgan Rabati Malik karvonsaroyi Karmana yaqinidagi tarixiy-siyosiy voqealarning muhim guvohi hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha, X asr oxiri - Somoniylar hukmronligining so'nggi yillarida Somoniylar davlatida katta ta'sirga ega bo'lgan turkiy lashkarboshilar - Xuroson hokimi Abu Ali Simjuriy va Balx hokimi Foyiq - oshkora ravishda Qoraxoniylar tomoniga o'tishgan. Xususan, Foyiq Rabati Malik yaqinida Horun Bug'roxonga qarshi jangda, sonli ustunlikka ega bo'lishiga qaramay, unga taslim bo'lgan. Bu voqea Karmana atrofidagi hududning Somoniylar davlati taqdirini hal qilgan tub siyosiy o'zgarishlar maydoniga aylanganligini ko'rsatadi - garchi jangning o'zi bevosita Karmana shahrida emas, balki unga tutash hududda bo'lib o'tgan bo'lsa-da, bu voqealar Karmana va uning atrofi Movarounnahr siyosiy tarixidagi hal qiluvchi lahzalarga bevosita yondosh hudud bo'lganini tasdiqlaydi.

Qoraxoniylar davrida qurilgan Minorai Kalon, Rabati Malik karvonsaroyi, Vobkent minorasi kabi yirik me'moriy inshootlar shu davrda Movarounnahrning Buxoro–Samarqand yo'nalishidagi hududlarida shahar madaniyati va davlat qurilish faoliyatining yuksak darajaga ko'tarilganidan dalolat beradi. 1130-yilda Qoraxoniylar davlati Saljuqiylar hukmdori Sulton Sanjarga tobe bo'lib qoldi, biroq mahalliy boshqaruv tizimi, jumladan Karmana kabi hududlarning ma'muriy tuzilishi asosan saqlanib qoldi. XII asrning 30-yillari oxirida Qoraxoniylar davlati qoraxitoylar hujumiga uchrab, siyosiy jihatdan zaiflashdi, Sulolaning oxirgi vakili Usmonxon 1212 – yilda qatl etiladi va qoraxoniylar xonadoniga mansub barcha kishilar o'ldiriladi. Shu tariqa Qoraxoniylar sulolasiga barham beriladi[5].

[4] Abu Bakr Narshaxiy. Buxoro tarixi. Fors tilidan A. Rasulev tarjimasi. 9-bet.
[5] Yuldosheva Bibirajab. "Qoraxoniylar davlatining tarixiy geografiyasiga doir." Oriens, 2024, 45-bet.

Mo‘g‘ullar istilosi va Chig‘atoy ulusi davri. XIII asrning 20-yillarida Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ullar istilosi Movarounnahrning butun siyosiy-ijtimoiy tuzilishini tubdan o‘zgartirib yubordi. 1219–1221-yillardagi istilo davrida Buxoro, Samarqand kabi yirik shaharlar qatori Zarafshon vodiysining boshqa aholi punktlari ham katta talafot ko‘rdi. Bu davrda O‘rta Osiyoga kirib kelgan mo‘g‘ul qabilalari - jaloyir, barlos, arlot, qavchin va boshqalar - asta-sekin mahalliy hayot tarziga moslashib, o‘troqlasha boshladilar[6].

XIII asrning boshlarida tashkil topgan Chig‘atoy ulusi davrida Movarounnahr, jumladan Zarafshon vodiysi hududlari, yangi ma’muriy-harbiy tizim - o‘nlik-yuzlik-minglik tizimiga asoslangan boshqaruv ostida qoldi. Bu davrda mahalliy hududiy birliklarning siyosiy mustaqilligi sezilarli darajada cheklangan bo‘lsa-da, Karmana o‘zining savdo-iqtisodiy ahamiyatini Buxoro va Samarqand oralig‘idagi tayanch nuqta sifatida saqlab qoldi.

Temuriylar davri: mintaqaviy ma’muriy tizimning mustahkamlanishi. XIV asrning 70-yillarida Amir Temur tomonidan tashkil etilgan markazlashgan davlatda Movarounnahrning butun hududi, jumladan Zarafshon vodiysidagi shaharlar ham, yagona ma’muriy-harbiy tizimga bo‘ysundirildi. Temuriylar davrida qo‘llanilgan suyurg‘ol tizimi - muayyan hududlarni harbiy xizmat evaziga shartli egalik qilish tartibi - mahalliy zodagonlar va harbiy amaldorlarning viloyat boshqaruvidagi rolini kuchaytirdi. Bu davrda Karmana kabi kichik shaharlar yirik siyosiy markazlar (Samarqand, keyinchalik Hirot) atrofida ma’muriy-iqtisodiy tayanch nuqtalar sifatida faoliyat yuritdi, biroq mustaqil siyosiy subyekt maqomiga ega bo‘lmadi bu davr markazlashgan hokimiyatning nisbatan yuqori darajasi bilan izohlanadi.

Temuriylar davlatining so‘nggi bosqichida, XV asr oxiri - XVI asr boshlarida, sulola ichidagi vorislik kurashlari va markaziy hokimiyatning zaiflashuvi natijasida Movarounnahrning turli viloyatlarida mahalliy hukmdorlarning mustaqillikka intilishi kuchaydi. Bu jarayon Shayboniylar davriga kelib Karmananing siyosiy mustaqillik sari yo‘l olishi uchun tarixiy zamin yaratdi.

Shayboniylar davri: Karmananing mustaqil siyosiy markazga aylanishi. XVI asr boshida Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi ko‘chmanchi o‘zbeklar Movarounnahrni bosib olib, Shayboniylar davlatini tashkil etdilar. Ushbu davlat ichida Karmana o‘ziga xos siyosiy ahamiyat kasb eta boshladi.

Manbalarda qayd etilishicha, 1540-yilda Ubaydullaxon vafotidan so‘ng Buxoro xonligi bir qator mustaqil yoki yarim mustaqil hukmdorlik markazlariga bo‘linib ketdi: Buxoroda Ubaydullaxonning o‘g‘li Abdulazizxon, Samarqandda Ko‘chkunchixonning o‘g‘li Abdullatifxon o‘z mustaqilligini e‘lon qildi, Balx va Badaxshonda Pirmuhammadxon hukmronlik qildi, Toshkent va Turkistonda Navro‘z Ahmadxon (Baroqxon) hokimiyatni qo‘lga oldi. Ayni shu davrda Karmana va Miyonqolda Iskandarxon mustaqil hukmdor sifatida o‘z hokimiyatini o‘rnatgan edi. Bu - Karmananing endi oddiy qaram qishloq yoki viloyat markazigina emas, balki Shayboniylar sulolasi ichidagi siyosiy kurashda mustaqil o‘rin tutuvchi hokimiyat markaziga aylanganligining bevosita dalilidir.

1551-1556-yillarda Shayboniylar o‘rtasida Movarounnahr hukmronligi uchun kechgan kurashda Iskandarxonning o‘g‘li Abdullaxon II g‘olib chiqib, Buxoro xonligida markaziy hokimiyatni o‘z qo‘liga oldi. Bu voqea alohida ahamiyatga ega: Karmanada mustaqil hukmronlik qilgan sulola vakili - Iskandarxonning o‘g‘li - butun Buxoro xonligining eng qudratli hukmdorlaridan biriga aylandi. Boshqacha aytganda, Karmana Buxoro xonligi tarixidagi eng buyuk

[6] Sultonov Farhod va Farrux Bozorboyev. O‘rta asrlar tarixi (O‘zbekiston tarixi). Darslik, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007. 236-bet.

hukmdorlardan biri sifatida tan olingan Abdullaxon II ning siyosiy va harbiy tayanch bazasi, uning hokimiyat sari yo‘lidagi dastlabki poydevori bo‘lib xizmat qilgan.

1557-yildan boshlab Buxoro xonlik poytaxtiga aylantirilgach, Iskandarxon (1563–1583) va uning o‘g‘li Abdullaxon II davrida Buxoro xonligining siyosiy mavqei sezilarli darajada ortdi: Balx (1573), Samarqand (1578), Toshkent (1582), Farg‘ona (1583), Badaxshon (1584), Ko‘lob (1585), Xuroson (1588) va Xorazm (1595–1596) ustidan xonlik hukmronligi o‘rnatildi, markaziy davlat boshqaruvi devoni mustahkamlandi[7]. Shu tariqa, Karmanada boshlangan siyosiy sulola butun mintaqa miqyosidagi yirik imperiyaga asos solgan bo‘lib chiqdi.

Ashtarxoniylar va Mang‘itlar davri: "norasmiy poytaxt" maqomi. Shayboniylar sulolasi tugagach, XVII asrdan boshlab Buxoro xonligida Ashtarxoniylar (Joniylar) sulolasi, XVIII asr o‘rtalaridan esa Mang‘itlar sulolasi hukmronlik qildi. Ushbu davrlarda Karmananing siyosiy-ma’muriy ahamiyati yanada mustahkamlandi. Ilmiy-tarixiy adabiyotlarda qayd etilishicha, Karmana XVI–XIX asrlarda o‘zining iqtisodiy, madaniy va ma’muriy markazlik maqomini izchil saqlab qoldi. Shayboniylar, Ashtarxoniylar va Mang‘itlar sulolalari hukmronligi davrida Karmana Buxoro davlatining yirik bekligi, norasmiy poytaxti hisoblangan. Bu - nihoyatda muhim tarixiy tafsilot: rasmiy poytaxt Buxoro shahri bo‘lib qolgan bo‘lsa-da, xonlar amalda davlatni ko‘p jihatdan aynan Karmanadan turib boshqarganlar. Bunday amaliyot Movarounnahr davlatchiligi tarixida noyob hodisa bo‘lib, u Karmananing nafaqat geografik, balki siyosiy-strategik jihatdan ham alohida ahamiyat kasb etganidan dalolat beradi.

Mang‘itlar davriga oid manbalarda Karmananing ma’muriy-hududiy tarkibdagi o‘rni yanada aniqroq ko‘rsatilgan. Muhammad Rahim otaliq hukmronligi davrida (1753–1758) Buxoro amirligi tarkibiga Buxoro, Samarqand, Miyonqol, Karmana, Qarshi, G‘uzor, Karki, Chorjo‘y va Shahrisabz viloyatlari kirgan[8] - bu ro‘yxatda Karmananing amirlik tarkibidagi asosiy viloyat markazlaridan biri sifatida alohida sanab o‘tilishi uning ma’muriy-siyosiy mustaqil vazn kasb etganini ko‘rsatadi. Doniyolbiy otaliq davrida (1758–1785) esa markaziy hokimiyatga qarshi mahalliy kuchlarning bosh ko‘tarishi Karmana, O‘ratepa, Nurota, Sherobod, Boysun kabi bir qator hududlarda kuzatilgan, bu esa Karmananing markaziy hokimiyat bilan munosabatlarida davriy ziddiyatlar ham mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi - ya’ni u vaqti-vaqti bilan markaziy hokimiyatdan mustaqillikka intilish maskani sifatida ham namoyon bo‘lgan.

Diniy-tasavvufiy nufuz va siyosiy hokimiyat: Karmana shayxlari. Karmananing siyosiy tarixidagi eng o‘ziga xos jihatlaridan biri - uning diniy-ma’naviy markaz sifatidagi mavqeining bevosita davlat siyosatiga ta’sir ko‘rsatganligidir. Bir necha yuz yillar davomida Karmana o‘zining islomiy-ma’naviy salohiyatini saqlab kelgan bo‘lib, bu yerda faoliyat yuritgan Karmana sayyidlari va xojalari Buxoroning boshqa diniy markazlari - jumladan Sayyid Amir Kulol, Sayyid Baraka va Juybor shayxlari (Xoja Islom, Xoja Sa’dlar) bilan yaqin hamkorlikda bo‘lgan hamda Buxoro xonligining ma’naviy-ruhiy hayotiga kuchli ta’sir o‘tkazgan. Bu borada eng yorqin misol - Karmanalik Hazrat Qosim Shayx Aziyzonning Buxoro hukmdori Abdullaxon II bilan bo‘lgan munosabatidir. Manbalarda ta’kidlanishicha, Hazrat Qosim Shayx Abdullaxon II ning piri (ruhiy ustozi) bo‘lgan, xon esa o‘z pirining huzuriga - Karmanaga - tez-tez tashrif buyurib, undan maslahatlar olib turgan. Bu voqea shuni ko‘rsatadiki, Karmana nafaqat siyosiy-ma’muriy, balki diniy-ma’naviy jihatdan ham davlat boshqaruvi qarorlariga bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi markazga aylangan edi. Tasavvuf shayxlarining hukmdorlarga ma’naviy ozuqa berishi, ularni pand-nasihatlar,

[7] Buxoro Xonligi. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, Qomus.info, 2024, qomus.info/oz/encyclopedia/b/buxoro-xonligi/, 1-2-betlar.
[8] Buxoro Xonligi. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, Qomus.info, 2024, qomus.info/oz/encyclopedia/b/buxoro-xonligi/, 1-2-betlar.

maslahatlar va yo‘l-yo‘riqlar bilan nomaqbul ishlardan qaytarib, xayrli ishlarga yo‘naltirishga intilishi - bu o‘rta asr musulmon Sharqida keng tarqalgan “shayx-hukmdor” munosabatlarining Movarounnahrdagi yorqin namunasidir. Bunday munosabatlar tizimi orqali diniy avtoritet siyosiy qarorlarga bevosita ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lgan, bu esa jamiyatdagi ma’naviy muvozanatni saqlashga, qonli nizolarning oldini olishga xizmat qilgan.

Karmanadagi Qosim Shayx, Mir Sayyid Bahrom, Shayx Xo‘ja Xusrav maqbaralari, Mirzachorbog‘ tarixiy yodgorligi va Rabati Malik kabi obidalar bugungi kunda ham xalqning ma’naviy mulki sifatida e‘tirof etiladi - bu yodgorliklar Karmananing asrlar davomida saqlab kelgan diniy-siyosiy nufuzining moddiy ifodasi hisoblanadi.

MUHOKAMA

Yuqorida keltirilgan tarixiy dalillar tahlili Karmananing o‘rta asrlar Movarounnahr siyosiy tizimidagi o‘rnini bir necha bosqichli evolyutsion jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi. Birinchi bosqich (IX–XII asrlar) - Karmananing Buxoroga to‘liq iqtisodiy-ma’muriy qaramlik davri. Narshaxiy ma’lumotlariga ko‘ra, bu davrda Karmana mustaqil siyosiy subyekt emas, balki Buxoro huquqiy tizimining tarkibiy qismi bo‘lgan. Biroq shu davrdayoq uning madaniy-diniy salohiyati (jome masjidi, adib va shoirlar ko‘pligi) shakllana boshlagan edi - bu keyingi asrlardagi siyosiy-ma’naviy yuksalish uchun zamin yaratdi.

Ikkinchi bosqich (XIII–XV asrlar) - mo‘g‘ullar istilosi va Temuriylar davridagi markazlashgan davlat tizimi sharoitida Karmananing iqtisodiy-strategik ahamiyati saqlanib qolgan, biroq siyosiy mustaqilligi cheklangan davr. Bu davr shuni ko‘rsatadiki, kuchli markazlashgan hokimiyat sharoitida hatto strategik jihatdan muhim bo‘lgan hududlar ham mustaqil siyosiy faoliyat olib borolmagan.

Uchinchi bosqich (XVI asr) - Shayboniylar sulolasi ichidagi markazdan qochish jarayonlari fonida Karmananing mustaqil hukmdorlik markaziga aylanishi davri. Iskandarxon misolida ko‘rinib turibdiki, markaziy hokimiyat zaiflashgan sharoitda mahalliy strategik ahamiyatga ega shaharlar tezda mustaqil siyosiy markazlarga aylanish salohiyatiga ega bo‘lgan. Bundan tashqari, Iskandarxon o‘g‘li Abdullaxon II ning umumdavlat miqyosidagi hukmdorga aylanishi - mahalliy hokimiyat markazlarining umumdavlat siyosiy tizimini shakllantirishdagi salohiyatini ko‘rsatuvchi muhim tarixiy dalildir.

To‘rtinchi bosqich (XVI asr oxiri – XVIII asr) - Karmananing Buxoro xonligi tarkibida “norasmiy poytaxt” maqomini olishi davri. Bu bosqich alohida e‘tiborga loyiq, chunki u markaziy hokimiyatning amalda ikki markazga - rasmiy (Buxoro) va norasmiy (Karmana) - bo‘linishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bunga sabab, bizningcha, bir necha omillar majmuasi bo‘lgan: birinchidan, Karmananing geografik jihatdan strategik joylashuvi (Buxoro va Samarqand oralig‘ida, savdo yo‘llari kesishmasida); ikkinchidan, uning diniy-tasavvufiy nufuzi (Qosim Shayx va boshqa mashoyixlarning faoliyati); uchinchidan, xonlar oilasi va mahalliy zodagonlarning bu yerda mulk va manfaatlarga ega bo‘lganligi.

Alohida ta’kidlash joizki, Karmananing siyosiy tarixi diniy avtoritet bilan davlat hokimiyati o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sir masalasini ham yoritadi. Abdullaxon II kabi kuchli va markazlashtiruvchi siyosat yuritgan hukmdorning o‘z piriga - Karmanalik Qosim Shayxga - muntazam murojaat qilib turishi shuni ko‘rsatadiki, o‘rta asr musulmon davlatchiligida siyosiy hokimiyat boshqaruvi ko‘p jihatdan diniy-ma’naviy ulamolar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Bu jihat Karmananing nafaqat siyosiy-ma’muriy, balki mafkuraviy-boshqaruv markaz sifatidagi rolini ham ko‘rsatadi.

Shuni ham qayd etish lozimki, Doniyolbiy davridagi Karmanada kuzatilgan mahalliy qo‘zg‘olonlar Karmananing markaziy hokimiyatga har doim ham to‘liq bo‘ysunmaganligini, balki

ba’zan markazdan qochish tendensiyalarining o‘chog‘i bo‘lganini ham ko‘rsatadi. Bu - norasmiy poytaxt maqomiga ega bo‘lgan har qanday hudud kabi, Karmananing ham markaziy hokimiyat bilan murakkab, ziddiyatli munosabatlarda bo‘lganligini anglatadi: bir tomondan u xonlik hokimiyatining tayanchi, ikkinchi tomondan esa mustaqillikka intiluvchi kuchlarning markazi bo‘lishi mumkin edi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Karmana o‘rta asrlar Movarounnahr tarixida uzoq va murakkab evolyutsion yo‘lni bosib o‘tgan: Somoniylar davridagi Buxoroga qaram qishloqdan tortib, Shayboniylar davridagi mustaqil hukmdorlik markaziga, so‘ngra Ashtarxoniylar va Mang‘itlar davridagi Buxoro xonligining norasmiy poytaxtiga aylangan.

Karmananing siyosiy ahamiyati asosan uchta omil majmuasi bilan belgilangan: geografik-strategik joylashuvi (Buxoro–Samarqand savdo yo‘lida), diniy-tasavvufiy nufuzi (mahalliy sayyidlar, xojalar va mashoyixlarning faoliyati) hamda ma’muriy ahamiyati (yirik beklik markazi sifatida).

Karmananing Buxoro xonligining “norasmiy poytaxti” maqomiga ega bo‘lishi Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixida nodir hodisa bo‘lib, u markaziy hokimiyat boshqaruvining amaliyotda bir necha markazga tarqalishi mumkinligini, shuningdek diniy sohani siyosiy hokimiyat bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Karmananing tarixi shuni ko‘rsatadiki, o‘rta asr Movarounnahr davlatlarida siyosiy markazning “rasmiy” (poytaxt) va “amaldagi” (hukmdor faoliyat yurituvchi markaz) shakllari bir-biridan farqlanishi mumkin bo‘lgan - bu masala keyingi tadqiqotlarda Movarounnahrning boshqa mintaqalari misolida ham chuqurroq o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Kelgusi tadqiqotlarda Karmananing arxeologik-topografik tuzilishi, uning vaqf hujjatlari asosidagi iqtisodiy tarixi, hamda Juybor xojalari va Karmana shayxlari o‘rtasidagi diniy-siyosiy munosabatlar tizimini chuqurroq yoritish muhim ilmiy istiqbolga ega bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (MLA formatida)

1. Askarov Ahmadali. Buxoroning ibtidoiy davr tarixidan lavhalar. Fan, 1973.
2. Buxoro Xonligi. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, Qomus.info, 2024, qomus.info/oz/encyclopedia/b/buxoro-xonligi/.
3. Egamova Dilnoza. "Mo‘g‘ullar istilosi natijasida Movarounnahrda yuz bergan etnik jarayonlar." XIU Research, jild 4, 2023.
4. Juma Ahror. Quyi Zarafshondagi joy nomlari tarixidan. Buxoro nashriyoti, 2006.
5. Karimov Islom. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 8-jild, O‘zbekiston, 2000.
6. Muhammadjonov Abdulahad. Qadimgi Buxoro. Fan, 1991.
7. Narshaxiy Abu Bakr. Buxoro tarixi. Tarjima va nashr: Fan, 1996.
8. Nazarova Shahnoza. "Temuriylar davri harbiy-ma’muriy tizimi." Baburid.uz ilmiy maqolalar to‘plami, 2023.
9. Ravshanova Malika. "Zarafshon daryosi qirg‘og‘idagi qadimiy maskan – Karmana." Ta’lim tadqiqotlari: XXI asr, aprel son, 2025. nauchnyimpuls.org/index.php/obrazovaniya/article/download/1105/800.
10. Sattorov Bahodir. "Qoraxoniylar davlatining tarixiy geografiyasiga doir." Oriens, 2024.
11. Sultonov Farhod va Farrux Bozorboyev. O‘rta asrlar tarixi (O‘zbekiston tarixi). Darslik.

12. Yuldosheva Bibirajab. "Qoraxoniylar davlatining tarixiy geografiyasiga tasnif." Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2024.
13. Кармана ва унинг атрофида олиб борилган археологик ишлар // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2000-йил. – Самарқанд. 2001.
14. Раҳимов К.А., Саидов М.М., Абдурахимов С.Ў. 2023 йилда Буркуттепа ёдгорлигида олиб борилган тадқиқотлар//O‘zbekistonda arxeologik tadqiqotlar 2023. 16-сон. – Самарқанд, 2024.
15. Саидов М.М, Рахимов К.А, Холматов А.Н, Хўжамов С.Ҳ, Омонов Д.С Кармана туманида олиб борилган дастлабки археологик тадқиқотлар // Марказий Осиё халқларининг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий тарихи, моддий ва маънавий маданияти (қадимги даврдан ҳозирги кунгача) (республика илмий-амалий конференция материаллари). – Самарқанд. 2023.
16. Хужаназаров М., Грицина А.А., Мирзаахмедов Д.К. Археологические исследования карманинского отряда. // Археологические исследования в Узбекистане – 2001 год. – Тошкент, 2002.
17. Хўжаяазаров М., Мирзаахмедов Д.К., ГрицинаА.А, Рахимов К.А..
18. Якубовский АЮ. Археологическая экспедиция в Зарафшанскую долину в 1934 г. // Труды отдела истории культуры и искусства Востока. Том. U. – Ленинград, 1940.